

Urganch Davlat Universiteti
Tarix fakulteti 302-guruh talabasi
Xudayarova Zebinisoning Manbashunoslik
fanidan kurs ishi
TAQDIMOTI.



O'zbekiston davlatining tashkil topishiga oid manbalar.



REJA:

- *Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar*
- *O`zbekiston mustaqilligiga oid va mustaqillik davri rasmiy hujjatlari*
- *Prezident I.Karimov asarlari mustaqillik davriga oid muhim manba*
- *Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlar va mustaqillik davri tarixiy asarlari*
- *Xulosa.*

- *Mustaqillik tushunchasi o`zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Mustaqillikka erishish g`oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o`tib, ming yilliklar qa`ridan bizgacha yetib kelmoqda.*
- *Prezident I. A. Karimov “Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati” nomli risolasida **“O`zbek millati azaldan o`z fikri-zikri, o`z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o`z yo`lidan, maslagidan, so`zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo`lgan tarix sahifalarni qunt bilan varaqlashimiz hammamiz uchun ham qarz, ham farz**“1,- deganda xalqimiz tarixiy qismatidan saboq olishni, otalar tajribasini o`rganishni nazarda tutadi. Zotan, xalqimizning uzoq tarixi ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash davridir.*

MUSTAQILLIK – OLIY NE`MAT!



- *Istiqlol yillarida O`zbekiston mustaqil suverin davlat sifatida jahon hamjamiyatida o`ziga hos nufuzga ega bo`ldi. U o`zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatni tortdi va ular bilan tengma –teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko`rsata oldi.*
- *O`zbekiston hukumatining islohotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlarini, an`analari bilan uyg`un holda amalgam oshirila boshlandi. " Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", " Savob ishni har kim har kuni qilishi kerak", "Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli,aqlli,, don ova albatta baxtli bo`lishi kerak" singari shiorlar xalqimizning orzu- istagi, umid va intilishlari bilan uyg`un holda dunyoga keldi.*

O`zbekiston mustaqilligiga oid va mustaqillik davri rasmiy hujjatlari

- *Bu davr hujjatlarining bir qismi sobiq ittifoq tizimida qabul qilingan. Ikkinchi gurux rasmiy hujjatlar mustaqil O`zbekiston rahbariyat organlari tomonidan qabul qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”, “O`zbekiston konstitutsiyasi” va boshqa qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqalardir. Shu muhim hujjatlardan biri bu “Mustaqillik deklaratsiyasi” hisoblanadi.*
- **«Mustaqillik Deklaratsiyasi»** da O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e`lon qilingan. Anashu muxim xujjatda, shuningdek, O`zbekiston davlatining o`z xududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha nashqi munosabatlarda tanxo xokimligi, davlat xududi chegarasi daxlsizligi va bu xudud xalqning muxokamasiga qo`yilmay turib, o`zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo`yilgan.

- *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991 yil 31 avgustda Toshkentda Oliy Kengash VI sessiyasi chaqirildi. Unda «**O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi Asoslari to'grisida**» **O'zbekiston Respublikasining Qonuni** qabul qilindi.*
- *Oliy Kengash qabul qilgan bu xujjatlar mustaqillik xaqidagi xalqimiz orzu-niyatlarining ro'yobga chiqqanligining xuquqiy asosi bo'ldi. **Bu hujjatlar mustaqillik davridagi muhim hujjatlar hisoblanadi.***
- *Bunday qonunning qabul qilinishi, Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-ahloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu Qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 30 sentabrda bo'lib o'tgan VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan **Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi.***

Prezident I.Karimov asarlari mustaqillik davriga oid muhim manba


*Mustaqillik davri tarixini
o`rganar ekanmiz bu jarayon
bevosita mamlakat*

Prezidenti I. A. Karimov

*faoliyati bilan uzviy
bog`langanligini ko`ramiz.*



Prezident I. Karimov asarlari mustaqillik davriga oid muhim manba



***O`zbekiston mustaqil
bo`lgach,***

***taraqqiyotning asosiy
yo`nalishlari***

***O`zbekiston Respublikasi
Prezidenti***

***I. A. Karimovning ma`ruza
va***

***nutqlarida, monogrrafik
asarlarda aks***

etgan.



I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" 2-jild. Toshkent 1996-y.

Prezident I. A. Karimov: **“O`zbek millati azaldan o`z fikri-zikri, o`z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o`z yo`lidan ,maslagidan, so`zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo`lgan tarix sahifalarni qunt bilan varaqlashimiz hammamiz uchun ham qarz, ham farzdir”**

*Respublikamizda esa I. A. Karimov asarlarining
17 jildlik to`plami nomlarda nashr qilingan.*



*Prezidentimiz
I.A.Karimovning “Tarixiy
xotirasiz kelajak yo’q” nomli
asari nafaqat tarixiy manba balki
biz tarixchilar uchun asosiy
qo’llanma hisoblanadi. Bu
asarda prezidentimiz Vatanimiz
nafaqat sharq, balki umumjahon
svilizatsiyasi beshiklaridan biri
ekanligini ta’kidlab, bu qadimiy
va tabarruk tuproqdan yetishib
chiqqa buyuk allomalar-Imom al
Buxoriy, Ahmad al-Farg’oniy,
Ahmad Yassaviy, Jaloladdin
Manguberdi, Amir Temur, Mirzo
Ulug`bek kabi buyuk
ajdodlarimizning jahon
madaniyatiga qo`shgan hissasi
haqida to`xtalgan.*

Mustaqillik davri tarixiy asarlari

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga o`zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlarida xalqimizning azaliy orzusini ushalishi ya`ni mustaqillikka erishish yo`lidagi zaxmatlar, mashaqqatlarni har tomonlama yoritib beradigan tarixiy asarlar kam edi, bori ham mukammal yaratilmagan edi. Ulug` allomalar aytganidek tarix insonni istiqbolga da`vat etadi, ulkan yaratuvchanlikni rag`batlantiradi, prezidentimizning "Tarix- xalq ma`naviyatining asosidir"1 degan fikri ham allomalrimiz so`zlaining isbotidir.

2000- yil 6- aprel kuni Oqsaroyda mamlakat prezidenti bir guruh olimlar, faylasuflar, tarixchilar va mutahassislar bilan uchrashib, milliy g`oya, uning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni va zarurati haqida batafsil gapirdi va "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", - degan qat`iy xulosaga keldi








Mustaqillik davri tarixiy asarlari

- *Mamlakatimiz rahbarining O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida “O`zbekistonning yangi tarixi” markazini tashkil qilish to`g`risida chiqargan farmoyishi katta tarixiy va siyosiy ahamyatga ega .*
- *Unga javoban 2000- yili “**Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida**”, “**O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida**”, “**Mustaqil O`zbekiston tarixi**” kitoblari nashr etildi.*
- *2003- yida esa Nukusda “Qoraqalpog`istonning yangi tarixi” chop etildi*


ЎЗБЕКISTONNING YANGI TARIXI.




MUSTAQILLIK DAVRI ASARLARI



С. Гуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедов



МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОН



ХОРАЗМ ТАРИХИ



Xulosa.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Tarixni bilish, ajdodlar tajribasini o`zlashtirish o`tmishdan saboq olish buyuk qadriyatdir. O`zligini anglagan, uzoq o`tmishini bilgan kishi oibs istiqbolni ham ko`radi. Demakki hayotda o`z o`rnini topa biladi. Demak tarix tafakkur va fikrga da`vat etuvchi qudrat! Ma`rifatli yuksak ma`naviyatli xalq milliy birlik, milliy yaxlitlik namunasini ko`rsatadi. Milliy yaxlitligi orqali manfaatlar yaxlitligiga erishadi. Bunday xalqni yengib o`tadigan kuch bo`lmaydi.

Mustaqillikni o`tgan davri- tarix bilan qiyoslaganda bir lahza. Biroq istiqlolning murakkab, dolg`ali, ziddiyatli bir paytida xalqimiz boy ma`naviyatini yaqqol namoyon qildi. Bugungi kunda kechayotgan voqealar asosan vaqtli matbuotda, jurnallarda ,zamonaviy tarixchilar asarlarida keng yoritimoqda

E' TIBORINGG ZUCHUN RAHMAT!